

ASOSIY GRAMMATIKANI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI

Qurbonova Marjona Asliddin qizi*SamDCHTI Filologiya va tarjimashunoslik fakulteti**filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi**4-kurs 2209-guruh talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tillardagi grammatikani turli xil samarali yo'llar bilan o'qitish mumkinligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Grammatika, kitob, mashqlar, metodika, so'z, til, usul, o'yinlar, o'quvchi.

Grammatikani o'qitish — bu tilning yashirin tartibini ochish, so'zlarga jon baxsh etib, ularni ma'no va mantiq asosida bog'lash san'atidir. U o'rganuvchini qoidalarini yodlash bilangina emas, balki fikrni aniq, to'g'ri va go'zal ifodalashga yetaklaydi. Grammatikani o'qitish orqali so'zlar tartibga tushadi, gaplar mazmun kasb etadi, nutq esa ravon va tushunarli bo'ladi.

Boshqacha aytganda, grammatikani o'qitish — bu til qurilishining poydevorini mustahkamlash, o'quvchiga til qonuniyatlarini anglatib, ularni hayotiy muloqotda ongli va erkin qo'llashga o'rgatish jarayonidir. Hozirgi kunda til o'rganishga juda katta e'tibor qaratilgan. Shuningdek, prezidentimiz Mirziyoyev Sh.M. qarorlariga binoan umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari uchun filologiya fanlar bo'yicha mashq daftarlarini nashr etish, multimediali disk ilovasi bilan ta'minlash esa o'qituvchilarni o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash tartibi asosida amalga oshiriladi.[1]

O'zbekistonda Grammatikani o'rganish tarixi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asariga borib taqaladi. Bu jarayon o'rta asrlardagi lug'atshunoslik taraqqiyotida ham o'z aksini topgan. Bundan tashqari grammatika haqida mashhur olimlar juda ko'p fikrlar qoldirgan. Masalan, Stiven King shunday degan: "Grammatika- bu yozuvchining asbob qutisidagi eng muhim vositalardan bir. Agar u noto'g'ri ishlatilsa, hatto eng yaxshi hikoya ham o'z kuchini yo'qotadi". "Yosh grammatikachilar" til va tafakkur, tillarning grammatik strukturasi, tilning ijtimoiy o'ziga xosligi singari masalalar doirasida fikr yuritmadilar. Ularning qarashlari o'z davrida e'tiborli bo'lgan psixologik nazariyalarning ta'sirida bo'ldi va ana shu yondashuv asosida barcha masalalarni hal etishga harakat qildilar[2;6].

To'g'ri metod tanlash orqali grammatika qiyin fan emas, balki nutqni rivojlantiruvchi vositaga aylanadi. Oskar Uayld izoh keltirganidek, "Grammatika- bu tilning asosi, lekin u ijodiy ruhni bo'g'ib qo'ymasligi lozim". Biz o'quvchilarga grammatikani o'rgatishda ularni qiziqtirish uchun turli xil usullardan foydalanishimiz

kerak. Chunki, interaktiv usullar orqali qiyin Grammatik qoidalar ham o'quvchilarning yodida qolishi osonroq. Shunday usullardan biri bu:

Induktiv usul (misoldan qoida chiqarish). O'quvchilarga avval misollar beriladi, keyin ular mustaqil ravishda grammatik qoidani aniqlaydilar. Afzalligi: mustaqil fikrlash rivojlanadi.

Amaliy mashqlar asosida o'qitish. Grammatika yozma va og'zaki mashqlar orqali o'rgatiladi. Gap tuzish, matn to'ldirish, xatolarni topish kabi mashqlar muhim ahamiyatga ega. Afzalligi: bilim amaliy ko'nikmaga aylanadi.

Interfaol metodlardan foydalanish. Rolli o'yinlar, guruhli ishlash, savol-javob va musobaqalar grammatikani qiziqarli tarzda o'rgatadi. Afzalligi: o'quvchi faolligi va darsga qiziqishi ortadi.

Hayotiy vaziyatlar asosida o'qitish

Grammatik qoidalar kundalik hayotda uchraydigan vaziyatlar orqali o'rgatiladi. Afzalligi: nutqiy kompetensiya rivojlanadi.

Asosiy grammatikani samarali o'qitish uchun o'qituvchi: turli metodlarni uyg'unlashtirishi, o'quvchi yoshini hisobga olishi, amaliy mashqlarga e'tibor berishi lozim. Shunda grammatika o'quvchilar uchun murakkab emas, balki tushunarli va qiziqarli fan bo'lib qoladi.

Grammatika so'zlarni to'g'ri tartibda joylashtirish va fikrni aniq ifodalashga yordam beradi. Grammatik qoidalarga amal qilinmasa, gapning ma'nosi noto'g'ri tushunilishi mumkin. Grammatikasi to'g'ri yozilgan matn ishonchli va tushunarli bo'ladi. Grammatika madaniyatli, ravon va chiroyli nutqning asosidir. Bu esa insonning bilim darajasi va saviyasini ko'rsatadi.

Ona tilidagi grammatikani yaxshi bilgan kishi chet tillarni tezroq va osonroq o'rganadi. Bunda o'quvchiga turli xil usullar va albatta kitoblar kerak bo'ladi. Masalan ingliz tilini o'rganmoqchi o'lgan o'quvchiga **Essential Grammar in Use- (Raymond Murphy)** kitobini tavsiya qilsak bo'ladi. Bu kitob boshlang'ich daraja (A1-A2) o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan. Har bir bobda qoidalar qisqacha tushuntiriladi va mashqlar bilan qo'llab-quvvatlanadi. Bundan tashqari, O'qituvchilar uchun "To the teacher" bo'limida kitobdan qanday foydalanish bo'yicha tavsiyalar mavjud. Masalan, ba'zi unitlarni dars davomida birgalikda ishlash, ba'zilarini esa mustaqil mashg'ulot sifatida berish tavsiya etiladi.

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, grammatika tilning "skeleti" bo'lib, uni qiziqarli va tushunarli tarzda yetkazib berish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Samarali o'qitishning kaliti- darsni ularni turli o'yinlar, multimedia vositalari va jamoaviy muhokamalar orqali jonlantirishdir. Grammatikani mazmunli muloqotning bir qismi sifatida o'rgatishgina o'quvchiga til to'siqlarini yengib o'tishga va savodli nutqni shakllantirishga yordam beradi. asosiy grammatikani o'qitishda zamonaviy kommunikativ va interfaol yondashuvlarga o'tish davr talabidir. Tadqiqotlar shuni

ko'rsatadiki, grammatik strukturani real hayotiy vaziyatlar (kontekst) orqali o'rgatish talabalarda tilni nafaqat tushunish, balki undan erkin foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi. O'qituvchi tomonidan deduktiv va induktiv metodlarning oqilona uyg'unlashtirilishi esa o'quv jarayonining samaradorligini kafolatlaydi va til o'rganuvchilarning motivatsiyasini oshiradi. "Grammatika- bu fikrlar tartibini belgilovchi qat'iy intizomdir"(Edgar Allan Po)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-apreldagi 187-son qarori. "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida".- Toshkent. 2017.-48.
2. Xayrullayev X.Z. Umumiy tilshunoslik. Uslubiy tavsiyalar. Samarqand-SamDCHTI -2007.-48.

INTERNET RESURLAR:

1. Arxiv.uz
2. lib.adpi.uz
3. n.ziyouz.com
4. assests.cambridge.org